Qabul qilindi: 10-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 16-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 21-sentabr 2026-yil

AXBOROT XURUJLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNI MAFKURAVIY XAVFLARDAN MUHOFAZA QILISHDA TASHKILOTLARNING O'RNI

(Yoshlar ittifoqi va Yoshlar ishlari agentligi faoliyati misolida)

Malika Uraimjonova Qaxramon qizi

“Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti” Pedagogika-psixologiya va umumta’lim fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

ORCID iD: 0009-0005-0816-1276

malikauraimjonova0109@gmail.com



Annotatsiya. Ushbu tezisda globallashuv va axborot xurujlari sharoitida yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda davlat va jamoat tashkilotlarining o'rni tahlil qilinadi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi (2017–2020) va Yoshlar ishlari agentligi (2020 yildan hozirgi kungacha) faoliyatining institutsional o'ziga xosliklari qiyosiy tarzda o'rganilib, mazkur tashkilotlarning mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi ishtiroki ochib beriladi. Zamonaviy axborot tahdidlarining tezkor xarakteri bilan institutsional javob mexanizmlari o'rtasidagi nomutanosiblik muammosi ko'tarib chiqiladi va uni bartaraf etish yo'nalishlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: mafkuraviy immunitet, axborot xurujlari, globallashuv, Yoshlar ittifoqi, Yoshlar ishlari agentligi, yoshlar siyosati, ma'naviy tarbiya.

Аннотация. В тезисе анализируется роль государственных и общественных организаций в защите молодежи от идеологических угроз в условиях глобализации и информационных атак. Проведен сравнительный анализ институциональных особенностей деятельности Союза молодежи Узбекистана (2017–2020 гг.) и Агентства по делам молодежи (с 2020 г. по настоящее время), раскрыто их участие в формировании идеологического иммунитета. Поднимается проблема несоответствия

между оперативным характером современных информационных угроз и институциональными механизмами реагирования, предложены пути её решения.

Ключевые слова: идеологический иммунитет, информационные атаки, глобализация, Союз молодежи, Агентство по делам молодежи, молодежная политика, духовное воспитание.

Abstract. This thesis examines the role of state and public organizations in protecting youth from ideological threats amid globalization and information attacks. It offers a comparative analysis of the institutional features of the Youth Union of Uzbekistan (2017–2020) and the Youth Affairs Agency (since 2020), revealing their contribution to shaping ideological immunity. The study raises the problem of the mismatch between the rapid nature of modern information threats and institutional response mechanisms, and proposes directions for addressing it.

Keywords: ideological immunity, information attacks, globalization, Youth Union, Youth Affairs Agency, youth policy, spiritual upbringing.



Kirish

Globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va axborot makonining chegara bilmasligi bugungi kunda yoshlar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda yangi xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va turli internet platformalari orqali tarqatilayotgan g'oyaviy tajovuzlar endilikda an'anaviy targ'ibot vositalaridan farqli o'laroq, tezkor, individuallashtirilgan va nazorat qilish qiyin bo'lgan shaklda amalga oshirilmoqda. Ushbu sharoitda davlat yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi institutlarning — xususan, o'z vaqtida faoliyat yuritgan Yoshlar ittifoqi va bugungi kunda ishlayotgan Yoshlar ishlari agentligining — roli alohida ahamiyat kasb etadi.

Mafkuraviy immunitet tushunchasi ilmiy adabiyotda inson ongini turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qiluvchi ichki mustahkamlik sifatida talqin qilinadi. Shuni takidlash o’tish joizki ,bu immunitet tayyor holda berilmaydi, balki tarbiya va ma'rifiy ish jarayonida bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash faqat taqiqlash yoki nazorat mexanizmlari orqali emas, balki

institutsional tarbiyaviy ish orqali erishiladigan natija hisoblanadi.

Boshqa tadqiqotda esa shunday ma’lumot berilgan axborot-mafkuraviy tajovuzlarning yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatiga, jumladan milliy iqtisodiyot rivojiga qo'shgan hissasiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan va bunga qarshi mafkuraviy profilaktika choralarining ahamiyati alohida qayd etilgan. Demak, muammo nafaqat ma'naviy-tarbiyaviy, balki ijtimoiy-iqtisodiy xarakterga ham ega.

2017 yilda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati negizida tashkil etilgan O'zbekiston yoshlar ittifoqi o'z faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida shakllantirish hamda turli mafkuraviy tahdidlardan asrashni belgilagan edi. Rasmiy hujjatlarda bu vazifa alohida band sifatida ajratib ko'rsatilgani tashkilotning mafkuraviy xavfsizlik masalasini ustuvor deb bilganidan dalolat beradi.

Amaliyotda bu vazifa asosan targ'ibot-tashviqot tadbirlari, ochiq muloqotlar va matbuot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Biroq bu davrdagi ishning asosiy kamchiligi shundaki, tashkilot faoliyati ko'proq ommaviy tadbirlar shaklida bo'lib, individual — ya'ni har bir yosh insonning shaxsiy internet-iste'moli va raqamli muhitdagi xavfsizligi darajasida — ishlash tizimi yetarlicha shakllanmagan edi. Natijada, tashkilotning o'zi ham keyinchalik butun yoshlarni qamrab ololmagan ommaviy tashkilotga aylana olmaganligi asosida tanqid qilingan edi.

Shuning uchun 2020 yil 30 iyunda Prezidentning PF-6017-son Farmoni asosida tashkil etilgan Yoshlar ishlari agentligi, avvalgi nodavlat notijorat tashkilot modelidan farqli o'laroq, to'liq davlat boshqaruv organi maqomiga ega bo'ldi. Bu o'zgarish, mening tahlilimcha, mafkuraviy xavfsizlik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega: endilikda agentlik qarorlari barcha davlat organlari, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun majburiy xarakter kasb etadi, bu esa yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni tarmoqlararo muvofiqlashtirish imkonini beradi — avvalgi NNT modelida bunday vakolat mavjud emas edi.

Agentlik nizomida yoshlarni Vatanga sadoqat va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat

ruhida tarbiyalash, ilm-fan va innovatsiyalarga jalb etish vazifalari mustahkamlangan. Shuningdek, agentlik tizimida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti faoliyat yuritishi — bu tarbiyaviy ishni ilmiy-tahliliy asosga qo'yishga qaratilgan qadam sifatida baholanishi mumkin.

Menimcha, bu institutsional o'zgarishning eng muhim jihati — mas'uliyatning "jamoat tashkiloti" darajasidan "davlat siyosati" darajasiga ko'tarilganidir. Bu, bir tomondan, resurs va vakolat jihatidan kuchliroq mexanizm yaratsa, ikkinchi tomondan, tashkilotning yoshlar bilan "teng huquqli hamkor" emas, balki "yuqoridan boshqaruvchi" sifatida qabul qilinish xavfini ham keltirib chiqaradi — bu masala alohida ilmiy tahlilni talab qiladi.

Axborot xurujlarining zamonaviy shakli — destruktiv kontent, soxta yangiliklar, radikal g'oyalarni tarqatuvchi yopiq guruhlar va boshqalar — tezkor va individuallashtirilgan xarakterga ega. Shu bilan birga, davlat institutlarining javob mexanizmi ko'pincha markazlashtirilgan, ommaviy va sekin harakatlanuvchi tuzilma sifatida qoladi. Bizning kuzatishimizcha, aynan shu nomutanosiblik — ya'ni tahdidning tezkorligi bilan institutsional javobning sekinligi o'rtasidagi farq — bugungi kunda eng dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Buni bartaraf etish uchun agentlik faoliyatida raqamli monitoring, media-savodxonlik dasturlari va "peer-to-peer" (tengdosh-tengdoshga) ta'sir mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yoshlarni mafkuraviy xavflardan himoya qilish borasidagi institutsional tizim 2017–2020 yillar mobaynida sifat jihatidan o'zgardi: nodavlat notijorat tashkiloti modelidan (Yoshlar ittifoqi) to'liq huquqli davlat boshqaruv organi modeliga (Yoshlar ishlari agentligi) o'tildi. Bu o'zgarish vakolat va muvofiqlashtirish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, zamonaviy axborot xurujlarining individuallashtirilgan va tezkor xarakteriga moslashish borasida institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Kelgusi tadqiqotlar mafkuraviy immunitetni shakllantirishning aniq o'lchov mezonlari va agentlik faoliyati samaradorligini baholash indikatorlarini ishlab chiqishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Uralov D. Talaba-yoshlar ongida ma'naviy bo'shliqni to'ldirishda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ahamiyati // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Vol. 1, Issue 9. – B. 962–966.

2. Xojanova T.J. Informatsionno-ideologicheskiye ataki na uchastiye molodyoji v razvitii natsionalnoy ekonomiki // Oriental Renaissance jurnali. – B. 69–77.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyundagi PF-6017-son Farmoni. – Manba: norma.uz.

4. Yoshlar ishlari agentligi tuzilmasi to'g'risida. – Manba: gov.uz/oz/yoshlar/pages/about.

